



HADISI SHARIFDA KASB VA ILM EGALLASH MASALALARI

Muhammadjonova Zilola Boyodulla qizi

NamDU 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: maqolada kasb va uning ta'rifi, kasb-hunar egasi bo'lishdan avval e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar borasida, hadislarda halol kasb va ilm egallash masalalari, bu orqali yosh avlodni kasbga yo'naltirish haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasb, hadisi , rizq, dehqonchilik, ilm, sahoba, ustozlik.

Аннотация: В статье кратко рассмотрены профессия и ее определение, аспекты, на которые следует обратить внимание перед тем, как стать обладателем профессии, вопросы получения халильной профессии и знаний в хадисах, а также направления молодого поколения в профессию.

Ключевые слова: занятие, хадис, пропитание, земледелие, наука, товарищество, наставничество.

Annotation: In the article, the profession and its definition, aspects that should be paid attention to before becoming an owner of a profession, the issues of obtaining a halal profession and knowledge in hadiths, and guiding the young generation to the profession, are briefly discussed.

Key words: occupation, hadith, sustenance, agriculture, science, companionship, mentorship.

Ma'lumki, insoniyat paydo bo'lgandan beri, odamzot o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Bora-bora bu mashg'ulotlar soni ko'payib, inson ongi rivojlanib, yangi-yangi mashg'ulotlar yuzaga kelgan. Bu mashg'ulotlar murakkablashib, sayqallanib kasb

darajasiga yetgan. Kasb odamzotning moddiy va ma’naviy hayotini belgilab beradi. Shu o‘rinda kasb atamasining lug‘atlarda va ilmiy adabiyotlardagi ta’rifini o‘rganib chiqamiz.

Kasb – (lotincha: professio – rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) – maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyatini turi hisoblanadi.[1].

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a’zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo‘lib, bunda a’zolar faoliyatining umumiyligi turi va kasbiy ongi bilan birlashgan bo‘ladi. E.A.Klimov o‘z ishlarida bu borada bir necha ta’riflarni ilgari suradi. Nisbatan bataysil ta’rif quyidagicha: “Kasb – jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etiladi, bu kuchlar unga sarflangan mehnat o‘rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo‘ladi” [2]. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib umumiyligi xulosa chiqarish mumkinki, kasb - bu mehnat faoliyatidan kelib chiqqan shakllar bo‘lib, ularni bajarish uchun insondan ma’lum bilim va ko‘nikmalarga, maxsus qobiliyat va rivojlangan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Kasb qilishdan asosiy maqsad nima? Kasb inson hayotida qanchalik ahamiyatga ega? Inson biror kasbni egallashdan avval o‘z oldiga ma’lum maqsad va rejalarini qo‘yadi. Birinchidan, kasb ko‘p hollarda moddiy ehtiyoj sabab tanlanadi. Toki u kelajakda kasb egasini moddiy jihatdan ta’minlay olsin. Ikkinchidan, tanlagan kasbi orqali karyera qilish imkoniyati mavjudligiga diqqat qaratiladi. Uchinchidan, ma’lum vaqt o‘tib, shu kasb doimiy bo‘lishi kafolatlangani yoki kafolatlanmagani e’tiborlidir. Shuningdek, bu kasb inson hayotida qanchalik o‘rin tutishi inobatga olinadi.

Biror bir inson o‘z xohish-istagidan kelib chiqib yoki zamon talabiga ko‘ra ma’lum mutaxassislikni egallaydi. Bu uning jamiyat orasidagi mavqeini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Bugungi kunda ma’lum kasb yoki hunarga ega



bo‘limgan inson qaysidir ma’noda jamiyat orasida hech qanday mavqega ega emas. Shu sababli hozirgi texnika va texnologiya asrida har bir inson kasb yoki hunarga ega bo‘lishi va zamon yangiliklaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

Muqaddas dinimiz ham insonlarni ilm egallahsga, halol kasb qilishga undaydi. Bu borada Qur’oni Karimda va hadisi shariflarda ko‘plab kalomlar keltirilgan. Masalan, dinimizda dehqonchilik bilan shug‘ullanish ulug‘ amallardan hisoblanadi. Chunki ulardan hamma manfaat oladi. Alloh taolo bu kasb egalarini juda ko‘p jonzotning rizqiga sababchi qilib qo‘ygan. Shu bois Islom ulamolari nazdida dehqonchilik eng afzal kasblardan sanaladi. Hadisi shariflarda dehqonchilik bilan shug‘ullangan odamlarga ko‘plab savob va ajrlar borligi aytilgan. Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: "Qaysi bir musulmon biror ekin eksa-yu, undan biror jonzot yesa, albatta, u uchun sadaqa bo‘ladi. O‘g‘irlangani ham u uchun sadaqa bo‘ladi. Yirtqichlar yegani ham u uchun sadaqa bo‘ladi. Qushlar yegani ham u uchun sadaqa bo‘ladi. O‘sha ekindan birortasi manfaat olsa, albatta, u uchun sadaqadir»[3].

Sahobalarning bir qanchalari dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Jumladan, Islom tarixida eng ko‘p hadis rivoyat qilgan sahoba Abu Xurayra, tajribali qo‘mondon, mohir mergan Sa'd ibn Abu Vaqqos va boshqa sahobalar roziyallohu anhum dehqonchilik sir-asrorlaridan voqif bo‘lib, mo‘l hosil olish yo‘lini yaxshi bilganlar. Har bir kishining o‘z mehnati bilan topgan rizq-ro‘zi afzal ne’mat ekani aytilgan. Miqdom roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda “Hech kim, hech qachon o‘z qo‘li (mehnati) bilan topgan taomidan yaxshiroq taom yegan emas” (Imom Buxoriy rivoyati)[3]. Hadislarda keltirilgan kasb-hunar haqidagi fikrlar hozirgi kunda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Halol kasb bilan shug‘ullangan inson ko‘ngli xotirjam, oilasi tinch, yor-u do‘sstlari bisyor bo‘ladi. Mana shu hikmatlarni yosh avlod tarbiyasida to‘g‘ri foydalanilsa, kelgusida o‘z kasbiga halol, sodiq va fidoyi insonlar ko‘payaveradi.

Dinimiz kasb-hunarni qadrlaydi va kishining o‘z qo‘li bilan qilgan kasbini Allohga yaqinlashtiruvchi eng afzal va sharafli amal deb hisoblaydi. Umar ibn Xattob roziyallohu anhu ishlamaydigan odamlarni uchratib, ulardan nega ishlamaysizlar deb so‘rabdilar. Shunda ular: “Biz Allohga tavakkul qilamiz”, – deb javob beribdilar. Umar ibn Xattob ularga: “Yo‘q, yolg‘on, Allohga haqiqiy tavakkul qiluvchi kishi avval yerga don ekip qo‘yib, so‘ng Allohga tavakkul qiladi. Hech biringiz, ey Alloh, menga rizq ber deya, rizq izlamay o‘tirib olmasin. Holbuki, osmondan na oltin va na kumush yog‘ilur” – deb aytgan edilar[4].

Yuqorida kasb, uning inson hayotidagi ahamiyati, kasb tanlashda nimalarga e’tibor qaratish lozimligi to‘g‘risida va Qur’oni Karim va hadisi shariflarda bu xususda qanday fikrlar bayon etilganligini bir qator izohlab o‘tildi. Endi ilm o‘zi nima, uning inson hayotidagi ahamiyati va ilm xususida hadislarda keltirilgan masalalarga bir nazar tashlaymiz.

Ilm - arabcha so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, o‘qish, o‘rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmuuni ifoda qilish uchun qo‘llaniladi. Ilm - voqelik haqidagi obyektiv bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirishga qaratilgan faoliyat[5].

Abdulla Avloniy o‘zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ilm haqida shunday deydi: "Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur" [6].

Ilm so‘zi lug‘atda bir narsani voqelikdagidek idrok etishga aytiladi. Imom G‘azzoliy rahimahulloh aytadi: “Ilm bir narsani xuddi o‘zidek idrok qilishdir”. Hilol ibn A‘lo aytganlar: "Ilm talab qilish qiyin, uni yodlash, uni talab qilishdan qiyin, unga amal qilish yodlashdan qiyin, unda salomat qolish amal qilishdan ham qiyinroqdir. Ilm ikkidir, biri – zohiriyl, ikkinchisi – botiniy ilm» [7] .



Inson o‘z vujudidagi moddiy tomonni ta’minlash bilan bir qatorda ma’naviy olamini ham boyitmog‘i lozim. Insonning ma’naviy olami yuksak bo‘lsa, bu yuksaklik uning moddiy tomonini to‘ldira oladi, aksincha, moddiy jihatdan inson yuksak bo‘lsa, bu yuksaklik uni ma’naviy jihatdan darajasini tushiradi. Shunday ekan, ilm o‘rganish, uni yodida tutish va amalda qo‘llash kishi dunyosining go‘zal va mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi. Kishining bilim olishi, salohiyatlari fuqaro bo‘lib ulg‘ayishi, el-yurt manfaati uchun xizmat qilishi va ilm fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi hamma zamonlarda dolzarb sanalalardan hisoblanadi. Qaysiki bir jamiyat ilm yo‘lidan borib, uning vositalarini to‘g‘ri tanlagan holda taraqqiyotini qurgan bo‘lsa, yuksak cho‘qqilarga erishgan. Bunga zamonaviy dunyo guvohdir.

Muqaddas Qur‘oni Karimda ham, hadisi shariflarda ham ilm afzalliklari haqida ko‘p o‘rinlarda ibratlar keltirilgan. Qur‘oni Karimda shunday marhamat qilingandir: “...Alloh sizlardan iymon keltirganlarning va ilm berilganlarning darajalarini ko‘taradi. Allah nima qilayotganlaringizdan xabardordir”. (Mujodala surasi 11-oyat)[8].

Imom Bayhaqiy va Abu Ya'lolar Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Sizlarga saxiylar saxiysining xabarini beraymi? Saxiylarning saxiysi Allahdir. Men odam bolasining eng saxiysiman. Menden keyin sizdan eng saxiyingiz, ilm o‘rganib, ilmini tarqatgan odamdir. U qiyomat kuni yolg‘iz o‘zi bir ummat bo‘lgan holida tiriltiriladi”, deganlar[8].

Ko‘rinadiki, dinimiz kasb-hunar egallahsga, jamiyatga foydasi tegadigan, halol kasb bilan shug‘ullanishga katta e’tibor qaratgan, bekorchilikni esa qattiq qoralagan va kasb-hunar o‘rganish, ilm olishga nafaqat undagan, balki buyurgan. Bu maqsadga erishish yo‘lida ota-onar farzandiga uning salohiyati va qobiliyatlarini hisobga olgan holda yoshligidanoq muhim ko‘rsatmalarni berib, ilm ortidan borishi



va kasb-hunar egallashi uchun yetarli shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni yaratib berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. Umirzoqov Sardor G‘ayrat o‘g‘li, Aziza Mirzabekovna Sayubova. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning psixologik omillari, 2021.// Academic Research in Educational Science. №1. 433-b.
3. Kasblarning eng afzali. Elektron manbaa: <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/> kasblarning eng afzali.
4. Halol kasb -Payg‘ambarlar sunnati. Zafar Mahmudov. Elektron manbaa: [Islaminsttitut.uz](http://islaminstitut.uz). 01.11.2018
5. <https://uz.m.wikipedia.org>
6. <https://saviya.uz>
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. Toshkent: «Hilol-Nashr» nashriyot-matbaasi, 2022. 31-bet
8. Mirjalilov M. Ustozlik sharaflı kasb. Elektron manbaa: <https://religions.uz>